Qosimov Karimjon, Qodirov Nazirjon Ulug'bekovich, Yusupov Asrorbek Rafiqjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI TA'MINLASHDA RAQAMLI INFRATUZILMANING ROLI.....	1019
Eshpo'latova Hilola Bozorboy qizi	



MICROSOFT ACCESS ASOSIDAGI QAROR QABUL QILISH TIZIMI ORQALI LABORATORIYALARDA “ISO 9001:2015” VA “ISO/IEC 17025:2017” STANDARTLARINI JORIY ETILISH DARAJASINI BAHOLASH	1025
Mamajonov Abduvoxid Abduraxmonovich, Abdujabborov Obidjon Oribjon o'g'li	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INNOVATSION RIVOJLANISH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YO'NALISHLAR	1032
Aksakalov Ravshanjon Dolimjonovich	
ENTROPIYA ASOSIDA MA'LUMOTLARNI SIQISH ALGORITMLARINI TAHLIL QILISH	1038
Jovliyeva Dilnoz Mustofa qizi	
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASINING KONSEPTUAL MODELI	1043
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
YENGIL AVTOMOBIL UCHUN YONILG'I SARFINI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN ECO-HARAKAT REJIMLARINI NAZARIY ASOSLASH USLUBI	1048
Fattohjonov Bekzod Rasuljon o'g'li, Ro'zimov Sanjarbek Komilovich, Ravshanbekov JaxongirAlisher o'g'li, Muxitdinov Akmal Anvarovich	
AQSHNING ILG'OR TAJRIBASI ASOSIDA IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1058
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
IJTIMOYIY HIMOYA KATEGORIYASINING TRANSFORMATSON RIVOJLANISHI	1067
M.Sh.Raximova	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISH VA AUDITORLIK XULOSASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY HAMDA AMALIY ASOSLARI.....	1072
Ibayev Xo'jabek, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
IPAK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH JARAYONINING TEXNOLOGIK VA SIFAT KO'RSATKICHLARI	1077
Mahmudov Umidjon Bahodir o'g'li, Turdialiyeu Umid Muxtaraliyevich, Sulaymonov Sharifjon Abdumanabovich	
QORAQALPOG'ISTONDA RAQAMLI TADBIRKORLIK EKOTIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1085
Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RAG'BATLANTIRISH ORQALI HUDUDLARNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	1089
Ibragimova Ma'mura Muxiddinovna	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH MODELLARI VA ULARNING AHAMIYATI.....	1094
Abduraimov Dilshod Muratkulovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ КАРАКАЛПАКСТАНА В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТРУКТУРЫ	1098
Оспанова Феруза Базарбаевна	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	1103
Saidrahmatova Zuhraxon Saidazim qizi	
INVESTITSIYA DASTURLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI MENEJMENT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARI.....	1107
Axmedova Dilnoza Muzaffarovna	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА РЫНОК ТРУДА В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ, ТЕНДЕНЦИИ И СТРАТЕГИИ АДАПТАЦИИ	1112
Хусайнов Р.Р., Кариева Л.С., Загидулина К.Р.	
KONUSSIMON SHAKLDAGI TIBBIY ENDOPROTEZLAR UCHUN TAYYOR SHAKLGA YAQIN ZAGOTOVKALAR OLIISHNING RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYASI	1121
Umarova Maxmuda Abdugafarovna, Karabayeva Lola Xasanovna	



KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOTNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	1125
Mahmudova Nargiza Davlat qizi	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ	1129
Даниярова Улбосин Куатбаевна	
ASSESSING THE IMPACT OF DIGITAL ECONOMY TECHNOLOGIES ON REGIONAL PRODUCTION, SERVICE SECTOR DEVELOPMENT, AND EMPLOYMENT	1135
Kurbonova Malika Akhmad kizi	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ВТОРОМУ	1140
Ходжаева Хадия Сулейманова	
IMPROVING INTEREST RATE RISK MANAGEMENT PRACTICES IN COMMERCIAL BANKS AND ITS PRIORITIES	1146
Seitnazarov Daniyar Baxadirovich	
KAM QAVATLI TURAR-JOY BINOLARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA GIPSOKARTON KARKAS DEVORLARNING USTUNLIGI	1151
Mirzaxonova Mexribon Marat qizi, Raxmonova Mahliyoxon Avazjon qizi, Baratova Mushtariybegim O'tkir qizi	



KAM QAVATLI TURAR-JOY BINOLARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA GIPSOKARTON KARKAS DEVORLARNING USTUNLIGI

Mirzaxonova Mexribon Marat qizi

Toshkent davlat transport universiteti doktoranti
ORCID: 4251-1976-530-018X

Raxmonova Mahliyo Avazjon qizi

Toshkent davlat transport universiteti magistranti

Baratova Mushtariybegim O'tkir qizi

Toshkent davlat transport universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur ishda kam qavatli turar-joy binolarining tashqi devor konstruksiyalarida energiya va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari kompleks yondashuv asosida chuqur tahlil etilgan. Tadqiqot doirasida an'anaviy qurilish yechimi hisoblangan g'isht devor (250 mm g'isht va 80 mm issiqlik izolyatsiyasi) hamda zamonaviy qurilish texnologiyalariga mansub gipsokarton karkas devor (100 mm issiqlik izolyatsiyasi)ning issiqlik-texnik parametrlar, energiya tejamkorlik ko'rsatkichlari hamda qurilish jarayonidagi iqtisodiy xarajatlari qiyosiy tahlil qilindi.

O'tkazilgan hisob-kitob va modellashtirish natijalari shuni ko'rsatdiki, gipsokarton karkas asosidagi devor konstruksiyasi issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti bo'yicha an'anaviy g'isht devorga nisbatan sezilarli darajada past qiymatlarni namoyon etadi, bu esa binoning umumiy energiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur konstruktiv yechimning qurilish muddati qisqaligi, mehnat sig'imining pastligi va umumiy smeta xarajatlarning kamayishi uning iqtisodiy jihatdan ham ustun ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari zamonaviy arxitektura va qurilish amaliyotida energiya resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish nuqtayi nazaridan karkas texnologiyalarining dolzarbligini asoslab beradi. Ushbu ilmiy izlanish muallifi tomonidan olib borilgan tahlillar bugungi kunda qurilish sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi hamda kam qavatli uy-joylar qurilishida optimal konstruktiv yechimlarni tanlash uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: energiya samaradorligi, gipsokarton, karkas devor, issiqlik izolyatsiyasi, mineral paxta, g'isht devor, gazabeton devor, iqtisodiy samaradorlik, texnologik tahlil, issiqlik oqimi.

Abstract. This study presents a comprehensive analysis of issues related to improving the energy and economic efficiency of external wall structures in low-rise residential buildings. Within the framework of the research, a comparative analysis was conducted between a traditional construction solution — a brick wall (250 mm brickwork with 80 mm thermal insulation) — and a modern construction technology — a gypsum board frame wall (with 100 mm thermal insulation), focusing on thermal performance parameters, energy efficiency indicators, and economic costs during the construction process.

The results of the calculations and modeling indicate that the gypsum board frame wall system demonstrates significantly lower thermal conductivity coefficients compared to the traditional brick wall, thereby contributing to enhanced overall energy efficiency of the building. In addition, the reduced construction time, lower labor intensity, and decreased total cost estimates confirm its economic advantages.

The findings substantiate the relevance of frame construction technologies in modern architectural and construction practices in terms of rational energy use, environmental sustainability, and improved economic efficiency. The analyses conducted by the author further emphasize the necessity of implementing innovative approaches in the construction sector and provide both theoretical and practical foundations for selecting optimal structural solutions in low-rise residential construction.

Keywords: energy efficiency, gypsum board, frame wall, thermal insulation, mineral wool, brick wall, aerated concrete wall, economic efficiency, technological analysis, heat flow.

Аннотация. В данной работе на основе комплексного подхода проведён углублённый анализ вопросов повышения энергетической и экономической эффективности наружных стеновых конструкций малоэтажных жилых зданий. В рамках исследования выполнено сравнительное изучение традиционного строительного решения — кирпичной стены (250 мм кирпичной кладки и 80 мм теплоизоляции), а также современного конструктивного решения — каркасной стены из гипсокартона (с 100 мм теплоизоляции) по показателям теплотехнических параметров, энергоэффективности и экономических затрат в процессе строительства.

Результаты проведённых расчётов и моделирования показали, что конструкция стены на основе гипсокартонного каркаса демонстрирует значительно более низкие значения коэффициента теплопроводности по сравнению с традиционной кирпичной стеной, что способствует повышению общей энергоэффективности здания. Вместе с тем, сокращение сроков строительства, снижение трудоёмкости и уменьшение общей сметной стоимости подтверждают её экономические преимущества.

Полученные результаты обосновывают актуальность применения каркасных технологий в современной архитектурно-строительной практике с точки зрения рационального использования энергетических ресурсов, обеспечения экологической устойчивости и повышения экономической эффективности. Проведённые автором исследования подтверждают необходимость внедрения инновационных подходов в строительной отрасли и служат теоретической и практической основой для выбора оптимальных конструктивных решений при строительстве малоэтажных жилых зданий.

Ключевые слова: энергоэффективность, гипсокартон, каркасная стена, теплоизоляция, минеральная вата, кирпичная стена, газобетонная стена, экономическая эффективность, технологический анализ, тепловой поток.

KIRISH

Zamonaviy qurilish sohasida energiya samaradorligi muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, umumiy energiya iste'molining sezilarli qismi, ayrim holatlarda 30–40 foizgacha bo'lgan ulushi aynan turar-joy binolariga to'g'ri keladi hamda uning asosiy qismi binolarni isitish va sovitish jarayonlariga sarflanadi. Issiqlik yo'qotishlarining katta qismi tashqi devorlar orqali yuzaga kelishi esa ularning issiqlik-texnik xususiyatlarini binoning umumiy energiya samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylantiradi. Shu bilan birga, mamlakatimizda energiya resurslaridan oqilona foydalanish va energiya tejankor texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan davlat siyosati mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Hozirgi vaqtda fuqarolik binolarining issiqlik himoyasi usullari ko'p jihatdan Yevropa tajribasidan mexanik tarzda o'zlashtirilgan bo'lib, ularning konstruktiv yechimlari qimmatbaho issiqlik izolyatsiya materiallarini qo'llashga asoslangan. Ushbu yechimlar sovuq va mo'tadil iqlimli hududlar uchun ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekistonning o'ziga xos iqlimiy, iqtisodiy hamda xomashyo xususiyatlarini yetarli darajada hisobga olmaydi. Bundan tashqari, qurilish jarayonini jadallashtirish, uning material sig'imini va mehnat sig'imini kamaytirish masalasi, ayniqsa yakka tartibdagi uy-joy qurilishida, dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Shu munosabat bilan qurilish sohasiga innovatsion texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan ishlanmalar alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday texnologiyalar inshootlarning mehnat sig'imi va material sig'imini sezilarli darajada kamaytirish, shuningdek, ularning ekstremal harorat ta'sirlariga, ayniqsa ortiqcha qizish davrida, barqarorligini oshirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida uy-joy qurilishining, jumladan, yakka tartibdagi uy-joy qurilishining sezilarli darajada o'sishi sharoitida, binolarning isitish, shamollatish va konditsioner tizimlari uchun ekspluatatsion energiya sarfini kamaytirish masalasi ham nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Shu sababli tashqi iqlim ta'siri ostida hamda tashqi to'suvchi konstruksiyalar materiallarining xususiyatlariga bog'liq holda xonalar issiqlik rejimining shakllanish jarayonlarini chuqur o'rganish muhim vazifalardan biridir.

An'anaviy qurilishda keng qo'llaniladigan g'isht devorlar mustahkamlik va uzoq muddat xizmat qilish xususiyatlari bilan ajralib tursa-da, zamonaviy energiya samaradorlik talablarini to'liq ta'minlay olmaydi.



Aksincha, gipsokarton karkas asosidagi ko'p qatlamli devor konstruksiyalari issiqlik yo'qotilishini kamaytirish, qurilish jarayonini tezlashtirish hamda resurs tejamliligini ta'minlash imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy qurilishda energiya samaradorligini oshirish, ayniqsa tashqi devor konstruksiyalarining issiqlik-texnik xususiyatlarini takomillashtirish masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan Kalamees T. o'z ilmiy ishlarida yengil konstruksiyali devor tizimlari to'g'ri loyihalanganda yuqori issiqlik izolyatsiyasini ta'minlab, binoning umumiy energiya samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ta'kidlaydi [2]. Shuningdek, muallif ko'p qatlamli karkas devor konstruksiyalari issiqlik yo'qotilishini kamaytirish orqali ekspluatatsion energiya sarfini qisqartirishga xizmat qilishini qayd etadi [2].

Khemlani L. esa o'z tadqiqotlarida karkas asosidagi devor tizimlari an'anaviy g'isht devorlarga nisbatan iqtisodiy jihatdan samaraliroq ekanligini asoslab, bunday konstruksiyalar qurilish muddatini qisqartirishi va mehnat sarfini kamaytirishini ko'rsatadi [3]. Shu bilan birga, ularning energiya samaradorligi yuqori bo'lib, uzoq muddatda iqtisodiy foyda keltirishini ta'kidlaydi [3].

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham mazkur yo'nalishda muhim ilmiy natijalarni namoyon etadi. Jumladan, Raximov Sh.R.ning fikricha, "bunday konstruksiyalar qurilish muddatini qisqartirishi bilan birga iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi" [5], bu esa zamonaviy karkas texnologiyalarining amaliy afzalliklarini ifodalaydi. Biroq Asqarov B.A. tashqi devorlarning issiqlik-texnik ko'rsatkichlari binoning umumiy energiya samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini ta'kidlab, ko'p qatlamli devor konstruksiyalarida issiqlik izolyatsiya materiallaridan oqilona foydalanish zarurligini asoslab beradi [4].

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy ishlarda asosan alohida yo'nalishlar — issiqlik izolyatsiyasi, iqtisodiy samaradorlik yoki konstruktiv yechimlar mustaqil ravishda o'rganilgan. Mazkur maqolada esa ushbu omillar o'zaro bog'liqlikda, ya'ni kompleks yondashuv asosida tahlil qilinib, gipsokarton karkas devor va an'anaviy g'isht devor konstruksiyalarining issiqlik-texnik, energiya samaradorligi hamda iqtisodiy ko'rsatkichlari qiyosiy baholanadi. Bu esa tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot taqqoslash va issiqlik texnik hisoblash usullariga asoslangan bo'lib, turli devor konstruksiyalarining energiya samaradorligi ularning issiqlik o'tkazuvchanlik ko'rsatkichlari orqali baholandi. Hisob-kitoblar bosqichma-bosqich amalga oshirildi.


Tahlil qilinayotgan devor konstruksiyalar (1-rasm):

I. G'isht devor

1. Ichki suvoq; 2. G'isht — 250 mm; 3. Mineral paxta — 80 mm; 4. Tashqi suvoq; 5. Bo'yoq.

II. Gipsokarton karkas devor

1. Gipsokarton — 12,5 mm; 2. Bug' to'sig'i; 3. Yog'och karkas; 4. Mineral paxta — 100 mm; 5. OSB — 12 mm; 6. Shamol membrana; 7. Armatura setka; 8. Fasad gipsokarton — 12,5 mm; 9. Suvoq va bo'yoq — 5 mm.



1-rasm. Gipsokarton karkas devor qatlamlari qirqimi



Avvalo, har bir qatlam uchun issiqlik qarshiligi aniqlanadi. Issiqlik qarshiligi materialning issiqlik o'tkazishga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini ifodalaydi va quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$R = d / \lambda$$

Bu yerda:

- R — issiqlik qarshiligi ($\text{m}^2\text{K}/\text{W}$)
- d — qatlam qalinligi (m)
- λ — materialning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti (W/mK)

Qiymatlar:

- ISO standartlardan [1]
- Qurilish normalaridan
- Material ishlab chiqaruvchi korxonalardan

Mazkur formula shuni anglatadiki, qalinlik ortgan sari issiqlik qarshiligi ortadi, issiqlik o'tkazuvchanlik yuqori bo'lsa esa qarshilik kamayadi.

Keyingi bosqichda devorning umumiy issiqlik qarshiligi aniqlanadi. Ko'p qatlamli konstruksiyada umumiy qarshilik barcha qatlamlar qarshiliklarining yig'indisiga teng:

$$R_{\text{umumiy}} = R_1 + R_2 + \dots + R_n$$

Bu yerda:

$R_1, R_2, \dots, R_n$ — devorni tashkil etuvchi alohida qatlamlarning issiqlik qarshiliklari

Shundan so'ng devorning umumiy issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti aniqlanadi. Bu ko'rsatkich devor orqali qancha issiqlik o'tishini bildiradi:

Qatlamlar va hisob:

◆ Gipsokarton (12.5 mm = 0.0125 m) ◆ Mineral paxta (100 mm = 0.10 m)

$$R = 0.0125 / 0.21 = 0.06 \quad R = 0.10 / 0.038 = 2.63$$

◆ OSB (12 mm = 0.012 m)

$$R = 0.012 / 0.13 = 0.09$$

$$R_{\text{umumiy}} = 0.06 + 2.63 + 0.09 = 2.78$$

Hisoblashda devor konstruksiyasining umumiy issiqlik qarshiligi nafaqat material qatlamlari, balki ichki va tashqi havo qatlamlarining issiqlik qarshiliklari ($R_{si} = 0.13$, $R_{se} = 0.04$) hisobga olingan holda aniqlanadi. Shu sababli umumiy qarshilik qiymati faqat materiallar yig'indisidan yuqoriroq natijani beradi.

$$R_{\text{umumiy}} = R_{\text{qatlamlar}} + R_{\text{ichki}} + R_{\text{tashqi}}$$

$$R \approx 3.01 \text{ m}^2\text{K}/\text{W}$$

G'isht devor (250 mm + 80 mm paxta)

G'isht (0.25 m) Mineral paxta (0.08 m)

$$R = 0.25 / 0.7 = 0.36 \quad R = 0.08 / 0.038 = 2.10$$

Suvoq (≈ 0.02 m)

$$R \approx 0.02 \quad R \approx 0.02$$

$$R_{\text{umumiy}} \approx 0.36 + 2.10 + 0.02 = 2.48$$

$$R \approx 2.68 \text{ m}^2\text{K}/\text{W}$$

Shundan so'ng devorning umumiy issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti aniqlanadi. Bu ko'rsatkich devor orqali qancha issiqlik o'tishini bildiradi:

$$U = 1 / R_{\text{umumiy}}$$

Bu yerda:

U — issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti ($\text{W}/\text{m}^2\text{K}$)

U qiymati qancha kichik bo'lsa, devor shuncha energiya samarador hisoblanadi.

Gipsokarton devor:

$$R = 3.01 \quad U = 1 / 3.01 = 0.33$$

G'isht devor:

$$R = 2.68 \quad U = 1 / 2.68 = 0.37$$

Oxirgi bosqichda binodan yil davomida yo'qotiladigan issiqlik miqdori hisoblanadi. Bu quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q = U \times A \times \Delta T \times t$$

Bu yerda:

- Q — issiqlik yo'qotilishi (Wh yoki kWh)
- A — devor maydoni (m^2)
- ΔT — ichki va tashqi harorat farqi ($^{\circ}\text{C}$)
- t — vaqt (soatlarda)




TAHLIL VA NATIJALAR

Turli devor konstruksiyalarida energiya yo'qotilishini baholash maqsadida issiqlik yo'qotilishi miqdori maxsus formula asosida hisoblab chiqildi. Hisob-kitoblarda umumiy maydon $A = 121 \text{ m}^2$, haroratlar farqi $\Delta T = 25^\circ\text{C}$ hamda isitish davomiyligi $t = 4320$ soat sifatida qabul qilindi. Natijalarga ko'ra, gipsokarton devor konstruksiyasida issiqlik yo'qotilishi $Q \approx 4309 \text{ kWh}$ ni tashkil etdi. Bunda issiqlik yo'qotish koeffitsiyenti hamda real ekspluatatsiya sharoitlarini inobatga oluvchi tuzatish koeffitsiyentlari qo'llanilganda, yakuniy ko'rsatkich $\approx 1727 \text{ kWh}$ ga teng bo'ldi. Shu bilan birga, g'isht devor konstruksiyasida issiqlik yo'qotilishi $Q \approx 4830 \text{ kWh}$ ni tashkil etib, tuzatish koeffitsiyentlari hisobga olingandan so'ng bu qiymat $\approx 1936 \text{ kWh}$ ga teng ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, gipsokarton asosidagi devor konstruksiyalari g'isht devorlarga nisbatan kamroq issiqlik yo'qotilishiga ega bo'lib, energiya samaradorligi jihatidan nisbatan ustun hisoblanadi (1-jadval; 2-rasm).

1-jadval. Energiya samaradorligi tahlili

Devor turi	R ($\text{m}^2\text{K/W}$)	U ($\text{W/m}^2\text{K}$)
Gipsokarton	3.01	0.33
G'isht	2.68	0.37
Gazobeton	2.50	0.40



2-rasm. Turli devor konstruksiyalarida issiqlik oqimi

Hisob natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, gipsokarton karkas devor issiqlik qarshiligi ($R = 3.01 \text{ m}^2\text{K/W}$) bo'yicha g'isht devorga ($R = 2.68 \text{ m}^2\text{K/W}$) nisbatan yuqoriroq ko'rsatkichga ega bo'lib, bu uning issiqlikni samaraliroq ushlab turishini anglatadi. Shu bilan birga, issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti (U) gipsokarton devorda pastroq ($0.33 \text{ W/m}^2\text{K}$) bo'lib, g'isht devorga ($0.37 \text{ W/m}^2\text{K}$) nisbatan taxminan 10–11% ga kam issiqlik yo'qotilishini ta'minlaydi.

Mazkur farq amaliy nuqtayi nazardan binolarda umumiy energiya sarfining kamayishiga, ayniqsa isitish mavsumida issiqlik yo'qotishlarining sezilarli darajada qisqarishiga olib keladi. Natijada, gipsokarton karkas konstruksiyalari nafaqat energiya samaradorligi, balki ekspluatatsiya xarajatlarini optimallashtirish jihatidan ham ustun ekanligi namoyon bo'ladi. Ushbu holat zamonaviy qurilishda energiya tejankor texnologiyalarni keng qo'llash zarurati ortib borayotganini yana bir bor tasdiqlaydi (2-jadval).

2-jadval. Yillik energiya sarfi (121 m^2 uchun)

Devor turi	Yillik issiqlik yo'qotilishi
Gipsokarton devor	$\approx 1727 \text{ kWh}$
G'isht devor	$\approx 1936 \text{ kWh}$

Farq $\approx 209 \text{ kWh/yil}$ tejaldi.

Iqtisodiy tahlil devor konstruksiyalarining 1 m^2 uchun material va qurilish xarajatlarini hisoblash asosida amalga oshirildi.



Hisoblash quyidagi umumiy formula asosida bajarildi:

$$C = \sum (C_i \times d_i)$$

Bu yerda:

C — 1 m² devor umumiy narxi (so'm);

C_i — materialning birlik narxi (so'm/m³ yoki so'm/m²);

d_i — qatlam qalinligi yoki sarfi (3-7-jadvallar).

3-jadval. Gipsokarton karkas devor

Qatlam	Qalinlik	Narx (taxminiy)	Hisob
Gipsokarton (2 tomon)	12.5 mm × 2	120 000	120 000
Mineral paxta	100 mm	180 000	180 000
OSB	12 mm	90 000	90 000
Karkas + membrana	-	50 000	50 000
Suvoq + bo'yov	-	21 000	21 000

Jami: ≈ 461 000 so'm/m²

4-jadval. G'isht devor

Qatlam	Qalinlik	Narx	Hisob
G'isht	250 mm	300 000	300 000
Mineral paxta	80 mm	140 000	140 000
Suvoq (2 tomon)	-	95 000	95 000

Jami: ≈ 535 000 so'm/m²

5-jadval. Gazobeton devor

Qatlam	Qalinlik	Narx	Hisob
Gazobeton	300 mm	350 000	350 000
Suvoq	-	150 000	150 000

Jami: ≈ 500 000 so'm/m²

6-jadval. 1 m² uchun umumiy xarajat

Devor turi	1 m ² narx
Gipsokarton karkas	≈ 461 000 so'm
G'isht devor	≈ 535 000 so'm
Gazobeton	≈ 500 000 so'm

$$C_{\text{umumiy}} = C_{1m^2} \times 121$$


7-jadval. 121 m² uchun umumiy xarajat

Devor turi	Umumiy narx
Gipsokarton	≈ 55.8 mln so'm
G'isht	≈ 64.8 mln so'm
Gazobeton	≈ 60.5 mln so'm

Tahlil natijalariga ko'ra, gipsokarton va g'isht devor bilan solishtirilganda taxminan 9 mln so'm tejaladi (8-jadval; 3-rasm).

8-jadval. Texnologik tahlil

Ko'rsatkich	Gipsokarton	G'isht
Qurilish tezligi	Juda tez	Sekin
Qurish jarayoni	Quruq	Ho'l
Og'irlik	Yengil	Og'ir
Poydevor yuklanishi	Kam	Katta
Montaj murakkabligi	Oson	Murakkab



3-rasm. Devorning issiqlik o'tkazish bo'yicha solishtiruv diagrammasi

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, gipsokarton karkas devorlar:

- issiqlik izolyatsiyasini samarali ta'minlaydi;
- issiqlik yo'qotilishini kamaytiradi;
- qurilish xarajatlarini qisqartiradi;
- montaj vaqtini sezilarli darajada kamaytiradi.

G'isht devor esa qo'shimcha material va mehnat talab qilishi sababli iqtisodiy jihatdan kamroq samarali hisoblanadi.

Zamonaviy qurilish amaliyotida gazobeton bloklar ham tashqi devor materiali sifatida keng qo'llanilmoqda. Avtoklavlanmagan gazobeton (ya'ni yuqori bosim va haroratsiz qotadigan gazobeton) xususiyatlari:

- arzon;
- energiya tejamkor;
- issiqlikni yaxshi ushlab turadigan;
- yetarlicha mustahkam devor materiali yaratish.

Ko'p komponentli avtoklavlanmagan gazobeton (kompozitsion bog'lovchi + maydalangan kvarts qumi + mineral va kimyoviy qo'shimchalar), ya'ni oddiy gazobeton emas, balki tarkibi optimallashtirilgan, modifikatsiyalangan (qo'shimchalar bilan kuchaytirilgan) variant. Kompozitsion bog'lovchi (sement + mineral qo'shimchalar) ishlab chiqilgan.

Gazobetonning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti past ($\lambda \approx 0.10-0.14 \text{ W/m}\cdot\text{K}$) bo'lgani sababli u an'anaviy g'isht devorlarga nisbatan yuqori energiya samaradorlikka ega. Biroq, amaliy hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, talab etilgan issiqlik qarshiligiga erishish uchun gazobeton devor qalinligi odatda 300–400 mm gacha yetkazilishi lozim bo'ladi. Bu esa konstruksiyaning og'irligini oshiradi, material sarfini ko'paytiradi va umumiy qurilish xarajatlarini orttiradi.

Bundan tashqari, gazobeton devorlar tashqi muhit ta'siridan himoyalaniishi uchun qo'shimcha suvoq yoki fasad tizimlarini talab qiladi. Gipsokarton karkas devor konstruksiyasi esa nisbatan kichik qalinlikda ($\approx 150-180 \text{ mm}$) yuqori issiqlik qarshiligini ta'minlaydi, montaj jarayoni tez va "quruq" usulda amalga oshiriladi hamda umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Shu bois, gazobeton devor g'ishtga nisbatan samaraliroq bo'lsa-da, kompleks ko'rsatkichlar bo'yicha gipsokarton karkas devor tizimidan pastroq natija ko'rsatadi (9-jadval).

9-jadval. Umumlashtiruvchi tahlil

Devor turi	Qalinlik	U (W/m²K)	Xarajat
Gipsokarton karkas	~150 mm	0.33	Eng arzon
G'isht + uteplitel	~330 mm	0.37	Qimmat
Gazobeton	~300 mm	0.40	O'rtacha

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, kam qavatli turar-joy binolarida tashqi devor konstruksiyasini tanlashda energiya samaradorligi, iqtisodiy tejamkorlik va texnologik qulaylik muhim mezonlar hisoblanadi.

Qiyosiy tahlillar asosida aniqlanishicha, gipsokarton karkas devor konstruksiyasi issiqlik qarshiligi yuqoriligi ($R = 3.01 \text{ m}^2\text{K/W}$) va issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentining pastligi ($U = 0.33 \text{ W/m}^2\text{K}$) bilan ajralib turadi. Bu esa g'isht devorga nisbatan taxminan 10–11% kam issiqlik yo'qotilishini ta'minlaydi.



Hisob-kitoblarga ko'ra, 121 m² devor yuzasida yiliga 200 kWh dan ortiq energiya tejash imkoniyati mavjud. Bu uzoq muddatda ekspluatatsiya xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi.

Iqtisodiy tahlil ham ushbu konstruksiyaning ustunligini tasdiqladi: umumiy qurilish xarajatlari past, qurilish muddati qisqa va mehnat sarfi kam. Bundan tashqari, konstruksiyaning yengilligi poydevorga tushadigan yukni kamaytiradi.

Gazobeton devorlar ma'lum darajada samarali bo'lsa-da, yuqori issiqlik qarshiligiga erishish uchun katta qalinlik talab etadi, bu esa umumiy xarajat va og'irlikni oshiradi.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, gipsokarton karkas devor konstruksiyasi kam qavatli turar-joy binolarida energiya tejamkor, iqtisodiy va texnologik jihatdan eng maqbul yechimlardan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyani keng joriy etish zamonaviy qurilishda barqaror rivojlanish va resurs tejamkorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur hisob-kitob natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Gipsokarton karkas devor energiya samaradorligi bo'yicha ustun:

- issiqlik o'tkazuvchanligi past;
- issiqlik yo'qotilishi kam.

Iqtisodiy jihatdan ustun:

- umumiy xarajat kam;
- qurilish tezligi yuqori.

Texnologik jihatdan ustun:

- yengil konstruksiya;
- qulay montaj.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. ISO 6946 – Thermal resistance and transmittance, 2017.
2. Kalamees, T. Thermal performance of lightweight building envelope solutions. Building and Environment, 2007. 3-5 pages.
3. Khemlani, L. Lightweight vs. Masonry Walls: Cost and Energy Analysis. Journal of Sustainable Architecture, 2019.
4. Asqarov, B.A. (2018). "Qurilish issiqlik texnikasi" (darslik), Toshkent, "O'qituvchi" 45-47 betlar.
5. Raximov, Sh.R. (2020). "Zamonaviy qurilish materiallari va texnologiyalari" Toshkent, "Fan va texnologiya" 102-105 betlar.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100